

UDK: 619.616.989.2.75

**PARRANDALARNING NYUKASL KASALLIGIDA TURLI VAKSINALARNI  
QO'LLAB, HOSIL BO'LGAN IMMUN QUVVATINI ANIQLASH**

*Bobomurodov Rustam Ismoil o'g'li*

*SamDVCHBU magistranti*

*Shapulatova Zumrad Jahongirovna*

*SamDVCHBU v.f.n., dotsenti*

*O'rinoq Haqberdi Sadriddin o'g'li*

*Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Parrandalarning Nyukasl kasalligida turli vaksinalarni qo'llab, hosil bo'lgan immun quvvatini aniqlash bo'yicha adabiyot ma'lumotlarining taxlili bayon qilingan.

**Kirish.** Respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlari aholini sifatli go'sht sut va tuxum bilan ta'minlashni yaxshilashga qaratilgan bo'lib, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Oxirgi yillarda parrandachilik xo'jaliklarini yuqori suratlarda rivojlantirish maqsadida, fan yutuqlari va ilg'or tajribalar asosida rivojlantirish maqsadida dunyo genofondiga xos xo'jalik foydali belgilari bilan boshqa zotlardan keskin farq qladigan zotlar mamlakatimizning turli xududlariga xorijdan va yurtimizning viloyat, tumanlariga aholi turmush sharoitini yaxshilashga yordamlashish maqsadida yetkazib berilmoqda. Bu aholi parrandachilik xo'jaliklarida yuqumli va yuqumsiz kasallikkarni oldini olish asosiy maqsad va vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Respublikaning janubiy hududi Qashqadaryo viloyatidagi parrandachilik xo'jaliklarida tekshirilgan 14 ta xo'jalikdan 5 tasida parrandalarning yuqumli laringotraxeit kasalligi bilan kasallanishi aniqlandi. Kasallikning o'rtacha 12,9 % ini, umumiylashtirish 12,9 % ini, umumiy kasal hayvonlar sonidan o'lim darajasi esa o'rtacha 8,1% ni tashkil etishi aniqlandi. Tovuqlarning o'pka to'qimalari, nafas olish yo'llarining yallig'lanishi hiqildoq va traxeyada tvorogsimon modda to'planganligi, o'pka va jigarda nuqtali qon quyulishlar, qon tomirlarining turg'unligi, konyuktivada gepermiya holatlari hamda oshqozon-ichaklaridagi chuqur va murakkab patomorfologik o'zgarishlar katta yoshdagi tovuqlarda ham kichik yoshdagi tovuqlarga nisbatan biroz farq qilmasa-da, kasallikning virulentligi va oqimiga bog'liq holda o'zgarishi aniqlandi.[14-15 bet]

Parrandachilik xo'jaliklarida jo'jalarni zoogigienik talablarga mos keladigan binolarda saqlash, oziqlantirish sifatini yaxshilash va sanitariya talablarini bajarish kolibakterioz kasalligining kelib chiqishini oldini olishda muhim vazifalardan hisoblanadi. "Oflosan" antibiotigini ishlab chiqarish sharoitida parrandalarning

kolibakterioz kasalligi profilaktikasida qo'llaganda jo'jalarning saqlanuvchanlik darajasi 95,2 % ko'rsatkichda qayd etildi. Shuni takidlash joizki, "Oflosan" antibiotigi jo'jalarning saqlanuvchanlik darajasini oshiribgina qolmasdan, ularning trik vazni ortishi va meyorda o'sib rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini inobatga olib, ushbu muolajani parrandachilik xo'jaliklarida kolibakterioz kasalligining oldini olish va davolash maqsadida qo'llash tavsiya etiladi. 19-20 bet.

Parrandalar orasida mikoplazmoz va salmonellyoz kasalliklarining birgalikda bir organizmda uchrashi natijasida ularda murakkab kilinik, patomorfologik o'zgarishlar kuzatilishi aniqlandi. Shuningdek, kasalliklarni o'z vaqtida emlash maqsadga muvofiq. Zero, kasallikni davolagandan ko'ra oldini olgan ma'qul. 10 bet

Kasallik qo'g'atuvchi virus tashqi muhit ta'sirlariga nisbatan chidamli. Virus ichimlik suvida – 165 kun verullentliligini saqlaydi. Qonda – 105 kun, kasal parranda tezagida – 165 kun, o'lган jo'ja tanasida – 195 kun, kanada – 213 kun, muzlatilgan parranda gavdasida – 6 oy, inkubatoriyada – 87 kun, oddiy buyumlarda – 192 kun, jo'jaxonada – 255 kun vasovutgichda – 538 kun virulentliligini saqlaydi (F.A.Niyazov, R.B.Davlatov, Sh.K.Durdiev 2010).

Kasallik qo'g'atuvchi PHK saqlovchi paramiksoviruslarga mansub Paramixoviridae oilasiga kiruvchi virus. Virusning ko'p miqdordagi shtamlari turlicha, shuning uchun kasallikning kechishi bronxit,parranda grippi yoki laringotraxeit kasalliklariga o'xshab ketadi,biroq virulentliliyi- kasallik qo'zg'atish qobiliyati bilan ancha farq qiladi (K.Shukurov va boshqalar 2019).

Nyukasl kasalligi (soxta o'lat, Osiyo o'lati, pnevmoensefalit, atipik o'lat,Filoret kasalligi, Nyukasl kasalligi) – yuqori kontagioz kasallik bo'lib , yuqori nafas olish, nerv tizimi va boshqa organlarni jaroxatlanishi bilan ifodalanadi (Bakulin V.A. 2006).

**Xulosa:** Adabiyot ma'lumotlarining taxlili shuni shuni ko'ratadiki hozirgi kungacha respublikamiz parrandachilik fermer xo'jaliklarida Nyukasl kasalligiga qarshi turli vaksinalardan foydalanib parrandalar orasida immun sistemasining ortishi to'la o'rganilmagan bu kasallik bilan kasallangan xo'jaliklarda keskin iqtisodiy zararning oshishi parrandalar bosh sonining kamayishi, tuxum yo'nalihidagi parrandalarning tuxum berishning kamayishi kuzatiladi va tuxum go'sht yo'nalihidagi parandalarga ham katta zarar keltiradi parrandachilik xo'jaliklarida kasallik paydo bo'lsa kasallik bir necha yil saqlanib qoladi xulosa qilib shuni aytamanki kasallik juda yuqori iqtisodiy zarar bilan yakunlanadi va o'zining maxsus o'chog'ini shakillantiradi.

**Adabiyotlar ro‘yxati**

1. B.A.Elmuradov, X.U.Murodov, Z.N. Qiyamova -Parrandalar laringotraxeit kasalligining patomorfologik diagnostikasi. Veterinariya meditsinası jurnali 2021-yil 10-son.
2. R.B.Davlatov, SH.I.Xo’jaxonov, X.R.Berdiev. Tovuq kolibakteriozining kimyoviy profilaktikasida antibiotiklarning samaradorligi. Veterinariya meditsinası jurnali 2021-yil 3-son.
3. Z.N.Kiyamova, B.A.Elmurodov-Parrandalarning respirator mikoplazmoz va salmonellyoz kasalliklarining birgalikda kechishi. Veterinariya meditsinası jurnali 2022-yil 4-son
4. Sadriddin o‘g O. H. et al. GOLSHTIN ZOTLI SIGIRLAR REPRADUKTIV FAOLIYATINI RAG ‘BATLANTRISH USULLARINI TAKOMILLASHTRISH (Adabiyotlar tahlili) //PEDAGOOGS jurnali. – 2023. – Т. 30. – №. 1. – С. 40-44.
5. Сапаров О. Ж. и др. ҚУЁНЧИЛИКДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН АЙРИМ БИОСТИМУЛЯТОРЛАРНИНГ ҚОННИНГ ГЕМОТОЛОГИК КЎРСАТГИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ (Адабиётлар тахлили) //PEDAGOOGS jurnali. – 2023. – Т. 31. – №. 1. – С. 185-188.